

YOSHLARNI MA`NAVIY-MA`RIFIY JIHATDAN TARBIYALASH ORQALI KASBIY KREATIVLIK KO`NIKMALARINI OSHIRISH.

Ибрагимова Марямхон Гуломовна

КДПИ ўқитувчиси

e-mail:ibragimovamaryamxon1@gmail.com

Meliqo‘zieva O‘g‘iloy Iminjon qizi QDPI talaba

Annotatsiya. Mazkur maqolada axloqiy tarbiya, yoshlarni tarbiyalash metodlari va shakllarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, tarixiy manbalarda ta’lim-tarbiya sohasining ta’limiy-axloqiy yo‘nalishida yozilgan ko‘plab asarlar tahlili, ularning mazmun-mohiyatini yoshlarga singdirish, shu bilan birga yoshlarning Vatanga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash, mehnatni qadrlashga o‘rgatish, tengdoshlariga bo‘lgan madaniy munosabatlarni rivojlantirish, shaxs sifatidagi nuqtayi nazarini qaror toptirish yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, axloq, odob, ta’limiy-axloqiy yo‘nalish, metod, shakl, tadqiqotlar, oila, oliv ta’lim muassasasi, madaniy munosabatlar, tarix zarchashmalari.

Аннотация. В данной статье молодежи, анализ многих работ, написанных в исторических источниках в воспитательно-нравственном направлении воспитательно-образовательной сферы, их интеграция в молодежную сущность содержания, в то же время, направление воспитания у молодежи рассматриваются направления нравственного воспитания, исследования по разработке методов и форм воспитания чувства любви к Родине.

Ключевые слова: образование, воспитание, мораль, порядочность, воспитательно-нравственное направление, метод, форма, исследование, семья, высшее учебное заведение, культурные связи, историческое наследие.

Annotation. This article discusses the directions of moral education, research on the development of methods and forms of youth education, the analysis of many works written in historical sources in the educational and moral direction of the educational sphere, their integration into the youth essence of the content, at the same time, the direction of educating young people's a sense of love to Motherland.

Key words: education, upbringing, morality, decency, educational-moral direction, method, form, research, family, Higher Education institutions, cultural relations, historical heritage.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani ayni haqiqatdir. Birda yovuz, birda madaniy ko‘rinishdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash, jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga undaydi. Ma’lumki, har qanday mamlakatning taraqqiyoti, millatning kelajagi unda o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarga – har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatlari, zamon bilan hamnafas, o‘qimishli, ma’naviyatli yigit-qizlarga qat’iy bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish..muhim vazifa etib belganalganligi yoshlar tarbiyasi mamlakat siyosatining eng ustuvor masalalaridan biri ekanini anglatadi. Sir emaski, keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim ta’zimida uzviylik, izchillik olib borilayotgan islohotlarning mavaffaqiyatini, samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Ko‘pgina hollarda o‘quvchilarning

noan'anaviy, yangicha (nostandard) yondoshilgan ishini ko'rgan odam buni faqat o'ta qobiliyatli yoki iste'dodli odamgina bajara olishi mumkinligi haqida o'ylaydi. Holbuki, odamlarni hayratga soluvchi bunday ishlarni hamma ham bajara olishi mumkin. O'quvchilarda layoqat, iste'dod, kreativlik har qancha hayratomuz bo'lmasin, ta'lim-tarbiyadan tashqaridagi faoliyatda kamol topa olmaydi. Kreativlikni rivojlantirishning eng unumli yo'llaridan biri barcha o'quvchilarni kichik yoshidan mahsuldar ijodga va kasbga o'rganish bilan mashg'ul bo'lishga jalg etish, darslarni ijodiy tarzda tashkil qilish, turli xil noan'anaviy dars usullaridan keng foydalanishdir. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun muhim bo'lgan aqliy va ilmiy rivojlanish, kasbiy mahorat va ijodiy qobiliyat singari yetuk fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Hammasining zaminida yosh avlodga oilada, ta'lim muassasalarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida beriladigan maxsus ta'lim-tarbiya yotadi. Ayniqsa keng dunyoqarash, ilmiy salohiyat, mustaqil va ijodiy fikrlash xususiyatlari har bir o'quvchi-yoshlarda shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Demak, yuksak ma'naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo'lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi. Negaki ma'naviyat va ma'rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxtsaodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo'llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g'aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga, go'zallikka burkashga chorlagan. Endilikda, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda ta'kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiraniib yotgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo'lga qo'yish, bu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash

borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘taradi. Tafakkur orqali inson odam va olam sirlarini o‘rganishda o‘zidan oldin hosil bo‘lgan qarashlar, tushunchalar, farazlar, insoniyat tomonidan chiqarilgan xulosa hamda qarorlarning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliгини belgilab oladi. Kishi fikrlash jarayonida o‘zi ko‘rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarining to‘g‘riliги, aniqligi, haqiqiyligi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi. O‘quvchilarda ijodiy tafakkur-kreativlikni ular uchun qulay va qiziqarli bo‘lgan sohalarda namoyon etib tarbiyalash ta’lim sohasining birinchi galdagi vazifasiga kiradi. Ijodkorlik va uni fikrlashning mantiqqa tayanishi esa bola 12-14 yoshga yetganda, u o‘z tafakkuriga egalik qilib, uni boshqara bilganda yuzaga keladi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, texnologiya fani darslaridagi mashg‘ulotlarni muvafaqiyatli o‘tish, texnologiya fani ta’lim va tarbiyasida sifat samarasiga erishish ko‘p jihatdan o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Texnologiya fani darslarini xususiyatlari shundan iboratki, o‘quvchilar texnologiya fani va texnik ijodkorligini rivojlantiriishga tayyorlash jarayoniga oid ko‘nikma va malakalarini xilma-xil amaliy ishlarni bajarish orqali o‘zlariga kerakli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlarni egallab oladilar. O‘quvchilar mehnatining hususiyatlaridan biri ularga faqat bilim beribgina qolmay, balki ularning madaniy axloq qoidalariga xususan batartiblilik, ozodalilikni va boshqalarni o‘rgatishdir. Shuning uchun o‘qituvchining birinchi kunlaridan boshlaboq kiyim-bosh va oyoq kiyimlariga qarash madaniy xulk-atvor qoidalariga o‘rgatish mashg‘ulotlarini rejalashtirish zarur. Bolalarni ana shularga yil davomida o‘rgatib, keyinchalik ota-onalar bilan kelishgan holda, bolalaridan maktab qo‘ygan vazifalarini bajarishlarini qat’iy talab qilish kerak. O‘qituvchi kasbiy axloq va odob normalarini mukammal egallasagina, o‘z kasbining fidoyisi bo‘la oladi. Barkamol shaxsni tarbiyalash metodlarining xususiy axloqni tarbiyalash metodlari; jamoatchilik orqali xulq-atvorni shakllantirish metodlari; ijtimoiy ong va axloqni shakllantirish metodlari; o‘z-o‘zini boshqarish va tarbiyalash metodlari; rag‘batlantirish metodlariga bo‘linishi tarbiya

metodikasining tub mohiyatini tashkil etish orqali talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini alohida qayd qilish mumkin. O‘qituvchi kasbiy axloq va odob normalarini mukammal egallasagina, o‘z kasbining fidoyisi bo‘la oladi. Barkamol shaxsni tarbiyalash metodlarining xususiy axloqni tarbiyalash metodlari; jamoatchilik orqali xulq-atvorni shakllantirish metodlari; ijtimoiy ong va axloqni shakllantirish metodlari; o‘z-o‘zini boshqarish va tarbiyalash metodlari; rag‘batlantirish metodlariga bo‘linishi tarbiya metodikasining tub mohiyatini tashkil etish orqali talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini alohida qayd qilish mumkin. Mavjud muammolarni hal etish yoshlар ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ko‘لامи va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlар qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi. Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o‘qitish modellari texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Shunisi e’tiborliki, ma’naviy-axloqiy tarbiya yo‘nalishlarini ta’lim bosqichlari bo‘yicha tasniflash mustaqillik davridagi pedagogik tadqiqotlarning yetakchi xususiyatidir. O‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda imkoniyati yuqori bo‘lgan fanlarga e’tibor qaratish, har bir fan mazmuni va malaka talablari asosida tarbiya usullarini tanlash, dars mashg‘ulotlarida noan’anaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, darsdan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalari ilmiy-metodik jihatdan ilm-fanning so‘nggi yutuqlari asosida yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Hulosa qilib aytganda, yosh avlod tarbiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy

mahoratiga bog'liq, yurt kelajagi va istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqligini qayd etish mumkin.

Adabiyotlar:

- 1.G'ulomovna, I. M. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS EFFECT ON THE QUALITY OF EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 138-142.
2. G'ulomovna, I. M. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS IN THE PROCESS OF TEChNOLOGICAL EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 143-146.
- 3.Ibragimova, M. (2016). ROL VNEUROChNIX ZANYaTIY. Ucheniy XXI veka, 55
- 4.G'ulomovna, I. M. (2023). Ilg'or ZamonaViY Pedagogik Texnologiyalarni Amaliyotda QoLlash. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 185-190.
- 5.G'ulomovna, I. M. (2022). PRIORITY DIRECTIONS OF THE SCIENCE OF PROFESSIONAL GUIDELINES.
- 6.Maryam, I., & Mukhlisa, U. The Use of Interactive Methods in the Orientation of Students to Entrepreneurial Activity. JournalNX, 7(03), 223-226.
7. Gulomovna, I. M. (2023, March). PSIXOTRENING MASHQLARNI KASB-HUNARGA YONALTIRISHDAGI AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 24-31)
8. Gulomovna, I. M. (2023, March). OQUVCHILARNI DARSGA BOLGAN QIZIQISHINI INTERFAOL METODLAR ORQALI OSHIRISH. In *E Conference Zone* (pp. 16-23).
- 9.Ibragimova, M., Usmonova, M., & Yusufxodjaeva, F. (2022). This article discusses the idea that preparing students for work at the current stage of education is one of the most important issues in the education and upbringing of the younger generation. Texnologik ta'limni innovatsion tashkil etish. ObЩestvo i innovatsii, 3(5/S), 153-157
- 10.Gulomovna, I. M., & Sobirovna, U. M. (2022). IMPROVING THE FIELD OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE SPECIALTY OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
- 11.Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. *The Peerian Journal*, 4, 20-22.
- 12.Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. Open Access Repository, 9(11), 106-113.

- 13.Sobirovna, U. M. (2022). USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 114-119.
- 14.Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
- 15.Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
- 16.Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.
- 17.SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.
- 18.Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81.
- 19.Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. *The Peerian Journal*, 4, 20-22.
- 20.Sobirovna, U. M., & Irodaxon, T. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 21(1), 41-44.
- 21.SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.
10. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o ‘qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).